



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 448 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli.....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	
Social-Psychological Factors of Increasing the Quality of Life	300
<i>Abdullaeva Ranazhon Matyakubovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi zamonaviy o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari.....	307
<i>Abdumalikova Gulchiroy</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari.....	311
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	316
<i>Azimova Maftuna Azizbekovna</i>	
Talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari	321
<i>Eshbekova Dilnoza Ibraimovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida moslashuvchanlikning psixologik xususiyatlari	324
<i>Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi, Fatullayeva Manzura Idillo qizi</i>	
Naim Karimov talqinida Oybek badiiy tafakkurining biografik manbalari	327
<i>Jonpo'lotova Gulshoda Qobil qizi</i>	
Kurashchilarning kuch sifatini rivojlantirishda maxsus mashqlardan foydalanish	334
<i>Muxamedjanov Umidulla Fayzullayevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axloqiy idealni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	337
<i>Saidova Malika Erkin qizi</i>	
Yengil atletika texnikalarini pedagogik mahoratni rivojlantirish metodikalarida qo'llash	340
<i>Sattarov Qarshiboy Narqulovich, Mirzayev Karim Mamarasul o'g'li</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishning innovatsion metodikasi	344
<i>Sattarov Sardor Sunnatulloevich</i>	
Innovatsion rivojlanish asosida uzluksiz ta'limning integratsiyalashgan mazmunini modellashtirish metodologiyasi.....	348
<i>Umarov Lutfillo Murodilloyevich</i>	
Milliy maktablarda rus tilini o'qitishda raqamli ta'lim resurslari va veb-saytlardan foydalanish metodikasi....	352
<i>Xolmirzayeva Munira Jahongir qizi</i>	
Педагогические основы повышения профессиональной компетентности будущих преподавателей физического воспитания высших образовательных учреждений	357
<i>Мавлянов Бахром Сангирович</i>	
Раннее выявление и мониторинг кожных заболеваний с помощью искусственного интеллекта: интегрированные архитектуры, алгоритмы и перспективы клинического внедрения	361
<i>Э. Ш. Назирова, Ш. Б. Абдусаломова</i>	
Ingliz tilida modallikni ifodalash vositalari va ularning semantik xususiyatlari	368
<i>Abdujalilova Sarvinov Rashid qizi, Abdurazzokova Mehriniso Azimjon qizi</i>	

Ona va farzand munosabatlarida etnomadaniy omillarning psixologik xususiyatlari.....	373
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchilarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlarning o'rni	378
<i>Abdurahmanov Muhammadjon G'ulomjonovich</i>	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini loyihalashning ilmiy-metodik asoslari.....	381
<i>Alibayev Sobir Xolboyevich</i>	
Formativ baholash jarayonidan foydalanib o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish	386
<i>Amirkulova Dilnoza Zokir qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogi faoliyatga tayyorlash tendensiyalari	389
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
The Role of National Values in English and Uzbek Literature: a Comparative Study	392
<i>Ataniyazova Sohiba Xamidovna</i>	
Frans Kafka ijodining psixologik talqini.....	396
<i>Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich</i>	
Development of a Set of Health-Promoting Exercises for Middle-Aged Men 50-60 Years Old, Taking Into Account Physical Training	400
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarni jismoniy rivojlantirish metodikalari	404
<i>Imomov Asliddin Abdurazzoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Современные мобильные технологии: эволюция и развитие.....	408
<i>Жураев Илхом Исхокович</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni	413
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Methodology for Developing Communicative Competence of Future Teachers Based on Multimedia Tools.....	418
<i>Kudratova Sultonposhsha Otabek qizi, Khalilova Mukhlisa Ulug'bek qizi, Ziyotova Umida Otabek qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida ona tili darslarida matn bilan ishlashni tashkil etish.....	423
<i>Erdanova Zamira Olimovna</i>	
Milliy sport turlari orqali talaba yoshlar bilan interfaol dars jarayonini tashkil etish.....	426
<i>Mirzayev Az'am Xudaynazarovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</i>	
Pedagogika bitiruvchilarining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishga asoslangan barqaror bandligini ta'minlash modeli.....	430
<i>Omonova Mohiniso Maqsud qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari.....	435
<i>Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'limda web-kvest topshiriqlardan foydalanish.....	440
<i>Saidova Gavhar Ergashovna, Itolmasova Oygul Sabritdinovna</i>	
Developing Communicative Competence in English Language Education Through Modern Interactive Methods.....	443
<i>Sativoldieva Shoxsanam Utkir qizi</i>	



ARALASH TA'LIM TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASHNING ILMIY- METODIK ASOSLARI

Alibayev Sobir Xolboyevich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, aralash ta'lim texnologiyalarining ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqot natijasida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik modeli taklif etilib, uning tarkibiy komponentlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, pedagogik loyihalash, aralash ta'lim, metodik yondashuv, adaptiv ta'lim, interaktiv metodlar.

Abstract: This article analyzes the methodological features of designing the educational process in a digital learning environment. It highlights modern approaches to organizing education based on digital technologies, particularly the significance of blended learning technologies. As a result of the study, a methodological model for designing the educational process is proposed, and its structural components are substantiated.

Key words: digital learning environment, pedagogical design, blended learning, methodological approach, adaptive learning, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются методические особенности проектирования образовательного процесса в условиях цифровой образовательной среды. Раскрывается значение современных подходов к организации обучения на основе цифровых технологий, в частности технологий смешанного обучения. В результате исследования предложена методическая модель проектирования образовательного процесса и обоснованы её структурные компоненты.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, педагогическое проектирование, смешанное обучение, методический подход, адаптивное обучение, интерактивные методы.

KIRISH

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq holda ta'lim tizimi so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Natijada o'quvchi pedagog ta'sirining oddiy obyekti bo'lishdan chiqib, hamkor va tashkilotchi sifatida namoyon bo'la boshladi.

Ta'lim muassasasining raqamli ta'lim muhiti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari majmuasini nazarda tutadi. Ushbu vositalardan foydalanish tizimli xarakterga ega bo'lishi hamda asosiy ta'lim dasturini amalga oshirish shartlarini shakllantirish bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablariga javob berishi kerak.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari kengayib borayotgan bo'lsa-da, uni metodik jihatdan asoslangan holda loyihalash mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatilmoqda. Natijada zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlari bilan ularni amaliy ta'lim jarayonida samarali qo'llash o'rtasida muayyan qarama-qarshilik yuzaga kelmoqda.

Mazkur tadqiqotda raqamli ta'lim muhiti sharoitida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik modeli ishlab chiqildi. Model adaptiv yondashuv, aralash ta'lim texnologiyalari va interaktiv metodlar integratsiyasiga asoslangan bo'lib, ta'lim jarayonini offline va online shakllarda kompleks tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonini loyihalashning tarkibiy komponentlari tizimlashtirildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi asoslab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Pedagogik loyihalashning nazariy asoslari pedagogik faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va natijalarni prognozlash bilan bog'liq ilmiy yondashuvlar orqali yoritilgan. Tadqiqotchilar pedagogik loyihalashni bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, aniq natijalarga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat sifatida talqin qiladilar ^[3].

V.P. Bespalko pedagogik loyihalashni ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyat sifatida izohlaydi. V.V. Kraevskiy va E.N. Zair-Bek pedagogik loyihalashni pedagogik faoliyatni me'yorlashtirish va uzatishning samarali usuli sifatida baholaydilar ^[8; 14].

I.A. Kolesnikova esa pedagogik loyihalashni pedagogik voqelikni talqin etuvchi yangi ilmiy bilim sohasi sifatida tavsiflaydi ^[15].

Raqamli ta'lim muhitini tashkil etish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni alohida ta'kidlangan. Tadqiqotchilar raqamli ta'lim muhitida adaptiv yondashuv, aralash ta'lim (blended learning) va interaktiv texnologiyalarni integratsiyalash o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadilar ^[5].

Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy bosqichlari sifatida ta'lim maqsadlarini belgilash, mazmuni strukturalashtirish, metod va texnologiyalarni tanlash hamda natijalarni baholash tizimini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan ^[10; 11; 13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganildi.

Raqamli ta'lim muhiti quyidagilarni ta'minlaydi:

- ta'lim jarayonini axborot-metodik qo'llab-quvvatlash;
- ta'lim jarayonini va uning resurs ta'minotini rejalashtirish;
- ta'lim jarayonining borishi hamda natijalarini monitoring qilish va qayd etish;
- axborotni yaratish, qidirish, yig'ish, tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etishning zamonaviy jarayonlari;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi axborot o'zaro ta'sirini ta'minlash.

Ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan axborot-ta'lim muhitining elementlari qanchalik rivojlanganligi, ularning ta'lim muassasasining rivojlanishiga oid asosiy konseptual maqsadlariga qanchalik mos kelishi hamda axborot-ta'lim muhitini loyihalash sifati bilan belgilanadi.

Ta'lim sifatini oshirish nuqtayi nazaridan qaralganda, o'quv jarayonini moslashuvchanlik (adaptivlik) asosida pedagogik loyihalash dolzarb bo'lib bormoqda. Bunda o'quvchilarning dinamik xususiyatlari, ya'ni fan o'rganish jarayonida o'zgarib borishi mumkin bo'lgan individual ehtiyojlari va maqsadlari kompleks tarzda hisobga olinadi ^[5].

Shuni ta'kidlash muhimki, ta'lim jarayonini pedagogik loyihalash offline va online ta'limning samarali yondashuvlarini integratsiya qilish asosida, shuningdek, zamonaviy avlod o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim ^[5].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "pedagogik loyihalash" tushunchasining turli talqinlari mavjud. Ulardan ba'zilarini keltiramiz:

- umumiy g'oyadan aniq tavsiflangan konkret harakatlargacha bo'lgan faoliyatni ishlab chiqishga yaqinlashtiruvchi, ketma-ket amalga oshiriladigan bosqichlar tizimi ^[3];
- zamonaviy ta'lim tizimlaridagi rivojlanish, o'zgarish, takomillashtirish va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish muammolarini hal etishga qaratilgan pedagogikaning amaliy ilmiy yo'nalishi va tashkil etiladigan amaliy faoliyat ^[8];
- pedagogik hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini me'yorlashtirish va uzatish usuli ^[14];
- pedagogik voqelikni talqin qilishning yangi rivojlanayotgan bilim sohasi ^[15];
- pedagogning loyiha yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyati bo'lib, u keng qo'llashga mo'ljallangan innovatsion tizim modelini ifodalaydi ^[18].



Shunday qilib, pedagogik loyihalash quyidagicha talqin qilinadi: yangi bilim sohasi va ilmiy yo'nalish sifati; aniq yakuniy natijalarga yo'naltirilgan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat sifati; pedagogik faoliyatni me'yorlashtirish va uzatish usuli sifatida [2].

Ba'zi mualliflarning fikriga ko'ra, loyihalash jarayoni sifatli ta'lim jarayonini yaratish uchun zarur bo'lgan bosqichlar ketma-ketligidan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi [10; 11; 13]:

- kasbiy va ta'lim standartlarini tahlil qilish;
- ta'lim maqsadlarini ta'lim natijalari nuqtayi nazaridan loyihalash;
- ta'lim mazmunini tanlash va tuzilmaga keltirish;
- maqsadlarga erishish jarayonini loyihalash: belgilangan maqsadlarga erishishga imkon beruvchi tashkiliy shakllar, metodlar, texnologiyalar va vositalarni tanlash;
- ta'lim natijalariga erishilganligini oraliq va yakuniy nazorat qilish uchun baholash vositalari tizimini loyihalash.

Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ta'lim mazmuni; ta'lim maqsadlari; ta'lim shakllari, metodlari va vositalari; ta'lim natijalarini baholash vositalari.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini joriy etish jarayoni an'anaviy ta'lim shaklidan masofaviy, aralash yoki gibrid ta'lim formatiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Axborot hajmining ortib borishi, voqelik tabiatiga oid tasavvurlarning o'zgarishi (virtual va kengaytirilgan reallik) kabi jarayonlar axborotni vizualizatsiya qilish texnologiyalari, uning mavjudligi, miqdori va hajmi orqali bilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Bu esa an'anaviy o'quv jarayonini qayta tashkil etishni va ta'lim jarayonini loyihalash hamda tashkil etish bo'yicha metodik yondashuvlarni sezilarli darajada o'zgartirishni talab qildi.

Shaxsning axborot xavfsizligi sharoitida raqamli ta'lim muhiti haqida gapirganda, biz o'quvchining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan axborot-ta'lim muhitini nazarda tutamiz [1]. Bu muhit o'quvchi, pedagog hamda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining interaktiv vositalari o'rtasidagi samarali axborot o'zaro ta'siriga asoslanadi.

Bunda ta'lim muhiti quyidagilarni o'z ichiga oladi: qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari majmuasi; darsdan tashqari faoliyat; o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish; tashqi ta'lim va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro hamkorlik.

Ta'lim muassasasining raqamli ta'lim muhitida axborot o'zaro ta'siri dasturiy-apparat vositalari majmuasi, o'zaro bog'langan va tizimlashtirilgan o'quv-metodik, axborot hamda tashkiliy sharoitlar orqali ta'minlanadi. Bu sharoitlar o'qitish yoki o'z-o'zini o'qitish natijalarining ijtimoiy va kasbiy yo'naltirilgan ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi [4].

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, maktab o'qituvchilarining raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanishga tayyor emasligi zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishning qator xususiyatlari bilan bog'liq. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida, xususan, aralash ta'lim (blended learning) sharoitida o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: tashkiliy, texnik, axborot va metodik [7; 12].

Ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitidagi ta'lim jarayonining muhim tashkiliy xususiyatlaridan biri o'quv makonini qayta tuzish (ish zonalarini ajratish, ayrim hollarda esa an'anaviy sinf-dars tizimidan qisman yoki to'liq voz kechish) hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etish ta'lim muassasasining umumiy tashkiliy modeliga ham ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy kunduzgi ta'lim shakliga nisbatan aralash ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega [12]. Muhim xususiyatlardan biri o'qituvchilar tomonidan keng qo'llaniladigan frontal (bir yo'nalishli) ish shakllaridan bosqichma-bosqich voz kechilishidir [12].

Mazkur tadqiqotda biz asosan raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Chunki ta'lim tizimidagi muhim o'zgarishlarning asosiy belgilaridan biri o'qitish metodlarini takomillashtirish va rivojlantirish hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhitida aralash ta'lim (blended learning) texnologiyasi asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qitish metodlarida yuz berayotgan muhim o'zgarishlarni alohida ta'kidlash lozim [9; 16].

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki [17; 21], aralash ta'limni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi: case-metod, o'yin metodi, illyustrativ (namoyish) metodi, modulli o'qitish metodi, hamkorlikda o'qitish (kichik guruhlar tarkibida), qidiruv metodi (evristik metod, kashfiyot orqali o'qitish), sho'ng'ish metodi (berilgan vazifaga maksimal darajada diqqatni jamlash), muammoli o'qitish metodi (qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, muammolarni hal qilish), loyiha metodi (yangi mahsulot yaratish), dasturlashtirilgan o'qitish metodi (natijani kafolatli olish) va boshqalar.

Aralash ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar ham tavsiya etiladi:

- o'quv fanlari mazmunini modullarga ajratish maqsadida ularni tuzilmaviy tashkil etish va didaktik tahlil qilish;
- har bir o'quvchilar guruhi uchun maqsadga muvofiq o'qitish vositalari va metodlarini aniqlash;
- interaktiv ta'lim kontentini joriy etish, bu esa masofaviy ta'lim, test sinovlari hamda o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini ta'minlaydi ^[6].

Aralash ta'lim o'quvchilardan o'zgarib borayotgan dunyoga moslashish, axborot bilan to'g'ri ishlash, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab qiladi.

Aralash ta'limni joriy etish jarayonida muayyan qiyinchiliklar ham yuzaga keladi. Mualliflar bu qiyinchiliklarni uch darajaga ajratadilar: jarayon darajasi, sharoit darajasi va natija darajasi. Ta'lim natijasiga erishish bilan bog'liq qiyinchiliklarga quyidagilar kiradi ^[20]:

- aralash ta'lim modellari asosida ishlash jarayonida o'quvchilarda yuqori motivatsiyani shakllantirish zaruriyati;
- o'quvchilarda o'quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish va vaqtni boshqarish (time management) ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Mualliflar maktablarda aralash ta'limni joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish yoki kamaytirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni taklif qiladilar ^[19; 20]:

- elektron ta'lim resurslarini to'g'ri tanlash va ularni moslashtirish;
- ota-onalarning salbiy munosabatini bartaraf etish;
- o'quvchilarda ta'lim faoliyatining barcha yo'nalishlariga mas'uliyatli va ongli munosabatni shakllantirish;
- innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha metodik ishlar tizimini tashkil etish.

Shunday qilib, aralash ta'lim texnologiyalari axborot o'zaro ta'siri sharoitida ta'lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi, o'quvchilar uchun individual ta'lim trayektoriyasini ta'minlaydi, ularning motivatsiyasini oshiradi hamda umumiy ta'lim jarayonining samaradorligini yuksaltiradi.

Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalar asosidagi zamonaviy axborot o'zaro ta'siri joriy etilishi bilan o'quvchi pedagog ta'sirining oddiy obyekti bo'lishdan chiqib, hamkor va tashkilotchi sifatida namoyon bo'la boshladi. Raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalashga oid metodik yondashuvlar raqamli texnologiyalar asosidagi zamonaviy axborot o'zaro ta'siri sharoitida amalga oshiriladigan elektron ta'limning turli shakllarini hisobga olishi lozim.

Mazkur tadqiqotda raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi o'quv jarayonini tashkil etish, boshqarish va loyihalashga nisbatan yangi metodik yondashuvlarni shakllantirishni talab etmoqda.

Raqamli ta'lim muhiti ta'lim jarayonining axborot-metodik ta'minoti, monitoringi, resurslarni boshqarish hamda ishtirokchilar o'rtasidagi interaktiv hamkorlikni ta'minlovchi kompleks tizim sifatida talqin qilindi. Shu asosda ta'lim jarayonini loyihalashda adaptiv yondashuvlar, offline va online ta'lim integratsiyasi hamda aralash ta'lim texnologiyalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari pedagogik loyihalashning mazmuni va bosqichlari turli ilmiy yondashuvlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Biroq ularning barchasida ta'lim maqsadlarini aniqlash, mazmunni tanlash, metod va vositalarni belgilash hamda natijalarni baholash tizimini ishlab chiqish asosiy komponentlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun interaktiv, muammoli, loyiha asosidagi hamda modulli o'qitish metodlaridan keng foydalanish zarurligi asoslab berildi. Aralash ta'lim texnologiyalari esa o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish, motivatsiyasini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi aniqlandi.

Umuman olganda, raqamli ta'lim muhitida ta'lim jarayonini loyihalashning metodik xususiyatlari ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini optimallashtirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ананина Ю. В., Блинов В. И., Сергеев И. С. Образовательная среда: развитие образовательной среды среднего профессионального образования в условиях сетевой кластерной интеграции. - М.: АВАНГЛИОН-ПРИНТ, 2012. - 152 с.
2. Башарина О. В. Проектирование информационно-образовательной среды профессиональной образовательной организации на основе системы управления дистанционным обучением Moodle: учеб.-метод. пособие. - Челябинск: ГБОУ ДПО ЧИРПО, 2015. - 64 с.
3. Безрукова В. С. Педагогика. Проективная педагогика : учеб. пособие. - Екатеринбург: Деловая книга, 1999. - 344 с.
4. Ваграменко Я. А., Яламов Г. Ю., Афонин А. Н. Креативное взаимодействие студентов в информационно-образовательной среде компьютерного класса колледжа // Педагогическая информатика. - 2017. - № 2. - С. 26-35.
5. Вайнштейн Ю. В. Педагогическое проектирование персонализированного адаптивного предметного обучения студентов вуза в условиях цифровизации : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02. - Красноярск, 2021. - 425 с.
6. Велединская С. Б., Дорофеева М. Ю. Смешанное обучение: секреты эффективности // Высшее образование сегодня. - 2014. - № 8. - С. 8-13.
7. Долгова Т. В. Смешанное обучение - инновация XXI века // Интерактивное образование. - 2017. - № 5. - С. 2-8.
8. Заир-Бек Е. С. Теоретические основы обучения педагогическому проектированию : дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.01. - Санкт-Петербург, 1995. - 410 с.
9. Итинсон К. С. Массовые открытые онлайн-курсы и их влияние на высшее образование // Карельский научный журнал. - 2019. - Т. 8, № 3(28). - С. 15-17.
10. Комраков Е. С., Курсакова А. В. Технология проектирования образовательного процесса на основе идей компетентностного и деятельностного подходов // Современная высшая школа: инновационный аспект. - 2017. - Т. 9, № 1(35). - С. 31-39.
11. Комраков Е. С., Чернявская А. Г. Технология проектирования различных форм совместной деятельности : учеб. пособие. - Жуковский: МИМ ЛИНК, 2011. - 27 с.
12. Кречетников К. Г. Особенности организации смешанного обучения // Современные проблемы науки и образования. - 2019. - № 4. - С. 88.
13. Курсакова А. В. Технология проектирования учебно-методических комплексов в системе открытого дистанционного профессионального образования : дис. канд. пед. наук : 13.00.08. - М., 2007. - 237 с.
14. Масюкова Н. А. Проектирование в образовании : монография / под ред. Б. В. Пальчевского. - Минск: Технопринт, 1999. - 288 с.
15. Тряпицына А. П. Теория проектирования образовательных программ // Петербургская школа. Теория и практика формирования многовариантной образовательной системы. - СПб.: ЦПИ, 1992. - С. 37-42.
16. Шихнабиева Т. Ш. Анализ опыта реализации смешанного обучения в России и за рубежом в условиях цифровой трансформации образования // Педагогическая информатика. - 2022. - № 2. - С. 83-95.
17. Шихнабиева Т. Ш. Особенности организации смешанного обучения в условиях цифровой трансформации образования // Педагогическая информатика. - 2022. - № 4. - С. 216-222.
18. Яковлева Н. О. Педагогическое проектирование инновационных образовательных систем : монография. - Челябинск: Изд-во ЧГИ, 2008. - 279 с.
19. Azizi S. M., Roozbahani N., Khatony A. Factors Affecting the Acceptance of Blended Learning in Medical Education: Application of UTAUT2 Model // BMC Medical Education. - 2020. - Vol. 20. - URL: <https://bmcmededuc.biomedcentral.com/articles/> (дата обращения: 02.06.2026).
20. Porter W. W., Graham C. R., Spring K. A., Welch K. R. Blended Learning in Higher Education: Institutional Adoption and Implementation // Computers & Education. - 2014. - Vol. 75. - P. 185-195.
21. Han F., Ellis R. A. Identifying Consistent Patterns of Quality Learning Discussions in Blended Learning // Internet and Higher Education. - 2019. - Vol. 40. - P. 12-19.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.